



JAMIYATDA OILANI MUSTAHKAMLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMO VA YECHIMLARI

¹ Pulatova Gulnoza
Murodilovna

²Umrzaqova Gulzoda
Abdurahmon qizi

¹FarDU, Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

² FarDU, Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblangan jamiyat, oila va uni mustahkamlash, qanday muammo va yechimlari mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlari: Oila, jamiyat, nizo, oilaviy muammolar, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, oilaviy maslahat, qadriyatlar, mustahkamlash, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются общество, семья и ее укрепление, проблемы и пути решения, которые считаются одними из актуальных вопросов

Ключевые слова: Семья, общество, конфликт, семейные проблемы, социальная поддержка, семейное консультирование, ценности, укрепление, образование.

Abstract: This article discusses society, family and its strengthening, problems and solutions, which are considered to be one of the current issues.

Key words:Family, society, conflict, family problems, social support, family counseling, values, strengthening, education.

Kirish

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning mustahkamligi nafaqat farzandlar tarbiyasiga, balki keng miqyosda jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, oilalar turli psixologik muammolar bilan duch kelmoqda. O'zaro munosabatlar, oila ichidagi hissiy aloqalar, kommunikatsiya muammolari va shaxsiy muammolar oilaning barqarorligini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Oilani mustahkamlash, har bir jamiyatning barqarorligi va farovonligining asosini tashkil etadi. Bugungi kunda oilaviy munosabatlar ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida o'zgarmoqda. Shu bois, oilaning mustahkamligini saqlash va oshirish dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi o'zgarishlarga qarshi turish, moliyaviy muammolar va ruhiy salomatlikka doir masalalar oilani mustahkamlashda hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolarni tashkil etadi. Bunday muammolarga yechim topish uchun, birinchi navbatda oila ichidagi ishonch va muloqotni mustahkamlash, jismoniy va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash, oilaviy ta'lim va tarbiya tizimlarini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga,

ijtimoiy yordam va yuridik qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish, oilalarga turli xil ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu yechimlar faqat jamiyatning barcha qatlamlarining faol ishtirokini talab qiladi. Oilani mustahkamlashdagi muammolarni hal qilish va samarali yechimlarni joriy etish uchun butun jamiyat, davlat va fuqarolik jamiyati birgalikda harakat qilish zarur. Faqat shu tarzda oila va jamiyat o'rtasida ijobiy o'zgarishlarni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Asosiy qism

Oilani muqaddas bilish va uning mustahkamligi uchun kurashish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Bugungi kunda avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ham hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odatlarimiz hamda an'alarimiz yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr – oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Oilani mustahkamlash bugungi kunning muammolardan biri desak xato qilmaymiz. Shu boisdan ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1993-yil 20-sentyabrdagi yig'ilishida 15-mayni har yili "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi. Shundan buyon butun dunyoda, shu jumladan yurtimizda ham "Xalqaro oila kuni" keng nishonlab kelinmoqda. O'tgan yillar mobaynida yurtimizda oila tushunchasi, uning mazmun va mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni masalalariga alohida e'tibor qaratilib, barcha huquqiy asoslar yaratilganini alohida ta'kidlash lozimdir. Ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlarini himoya qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. [1]

Oila — nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. [2]

Ma'lumki, jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bolsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo'rg'onining mustahkamligi va unda ma'naviy jihatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg'ayadi. Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, poydevori-chi? Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o'ynaydi, tashqi ta'sirlar-chi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o'z mavqeini qanchalik asramoqda?

Oila – muqaddas qo'rg'on, oila – ma'naviy kamolot maskani va boshqa bir qancha so'z va iboralar bilan oilaning mavqeini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda

namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma'naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, pir-u badavlat otaxon va onaxonalar ko'z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir. Ammo, afsus, bizni o'ylantirgan masala bu – oila qo'rg'onining buzilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida garbona yashash tarzining o'zlashtirilishi bo'lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma'naviy jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmaslik masalasidir. Ma'naviy tahdid sifatida baholanayotgan garbona madaniyat, garbona yashash, garbona muomala, garbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo'rg'onimizga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatayotganini yetarli darajada o'ylab ko'rmayapmiz. Oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag'ir bir hayot tarzini bizga in'om etmayotganmikin. G'arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o'rtog'ini ochiqdan ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang'och qizdan mamnun ona, oiladan xalovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog'om bo'lishiga olib kelmasmikin. Aksariyat oilalar bunday hayot tarzini qanday bolsa, shundayligicha o'zlashtirmoqda. Ko'p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to'g'ri keladimi, yo'qmi, buni o'ylab ko'rmayapmiz. Natijada oilalar arziyas muammo oldida dosh berolmay, yengil yelpi, havoyi bir nafs qurboniga aylanishmoqda. G'arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag'irlik, egoizm kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida olmoqda. Buning oqibatida ayol kimningdir qo'g'irchog'iga aylanmoqda, go'daklar mehrdan mosuvo holda yetimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin. Oila tinchligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bunday muammolar aslida har bir vijdonli insonning qalb og'riqlari emasmi? Yong'in chiqsa, hol-u quruq barobar yonadi deganlaridek, oila buzilsa, yoinki farzand axloqsiz chiqsa, birgina inson emas, atrofdagi insonlar, boringki, butun jamiyat hayotiga, uning farovonligiga, tinchligiga rahna solingan boladi. Shunday ekan, oila qo'rg'onini asrash, uning mustahkamligini taminlash uchun nimalarga e'tibor berish lozim. Bizningcha, hamma narsaning asosi ma'naviy yetuklikka borib taqaladi. Axloqimizga tashqi jihatlar salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ekan, ulardan himoyalashning yagona yo'li ham ma'naviy yetuklikdir. Ma'nau yetuk inson atrofdagi har bir narsaga befarq qaray olmaydi. Ma'nau boy inson garbona yashash, garbona madaniyatni qanday bo'lsa, shundayligicha o'zlashtirmaydi, aksincha o'zbekona, milliy xususiyatlarimizga uyg'unlashtiradi. Oila deb atalmish muqaddas qo'rg'onni asrab-avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma'nau boy, aqlan kamolga yetgan bo'lsa, har qanday zararli ta'sirlarni oldindan ko'radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi. Oila mustahkamligini ta'minlashda tajribali, ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar o'giti, purmano nasihatlar, ularning ibratli hayot tarzi ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo'lsa, tajribasidan o'rganishsa, o'ylaymizki, oila yanada mustahkam va voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasi boladi. Binobarin, oila qo'rg'oni ma'naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boriladi[3][4].

Oilani mustahkamlash – bu jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, individlarning ruhiy va ijtimoiy farovonligini oshirish, shuningdek, kelajak avlodlarga to'g'ri tarbiya berish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Oila nafaqat jamiyatning asosiy bo'g'ini, balki insoniyatning qadriyatlarini va madaniyatini saqlovchi muhitdir. O'zgartirilgan dunyoqarashlar va tez o'zgarayotgan ijtimoiy sharoitlarda oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan hurmati va sevgi asosida shakllanadi. Shu bois, oilani mustahkamlash jamiyatda o'zgarishlarni ijobiy tomonga yo'naltirish va insonlarning ruhiy farovonligini ta'minlash uchun muhimdir.

Oilani mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlaridan ham keng ko'lamli rivojlanishni ta'minlaydi, chunki oiladagi ijobiy o'zgarishlar jamiyatning boshqa sohalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon nafaqat oiladagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash, balki jamiyatning barqarorligini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Demak, oilani mustahkamlash – bu har bir jamiyat uchun ustuvor vazifa bo'lib, uning kelajagi va rivojlanishi uchun zaruriy shartlardan biridir.[5]

Bugungi kunda oilalar turli ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan duch kelmoqda, bu esa ularning mustahkamligini ta'sir qiladi. Shunday qilib, oilani mustahkamlashning samarali yechimlari va mavjud muammolarini tahlil qilish zarur.

Muammolar:

1. Iqtisodiy muammolar: Jamiyatda oilaning iqtisodiy farovonligi ko'pincha muammo bo'lib qolmoqda. Xususan, kam maosh, ish topishdagi qiyinchiliklar va turar-joy muammolari oilaning barqarorligini ta'sir qiladi. Iqtisodiy qiyinchiliklar ota-onalar o'rtasida stress va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa bolalar uchun salbiy ta'sir o'tkazadi.

2. Oilaviy nizolar: Oilalar o'rtasidagi nizolar, ayniqsa, oila ichidagi kommunikasiyaning yetishmasligi va hissiy muvozanatning buzilishi, oilaviy mustahkamlikka jiddiy zarar yetkazadi. Bu, o'z navbatida, farzandlar tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Psixologik muammolar: Stress, depressiya, va emotsional holatlarning boshqarilmasligi oiladagi sog'lom muhitni buzadi. Oila a'zolari o'rtasidagi xatoliklar, ya'ni bir-birini tushunmaslik va e'tiborsizlik, oila a'zolarining psixologik holatini yomonlashtiradi.

4. Tarbiyaviy muammolar: Zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa omillar farzandlarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oilaning tarbiyaviy funksiyasi ba'zan qoldiriladi yoki yetarli darajada amalga oshirilmaydi.

Yechimlar:

1. Iqtisodiy yordam va qo'llab-quvvatlash: Jamiyatda oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun turli davlat dasturlari, ijtimoiy yordam va subsidiyalar tizimini rivojlantirish zarur. Ota-onalar uchun ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash oilaviy farovonlikni oshiradi.

2. Oila ichidagi kommunikatsiyani yaxshilash: Oilaviy nizolarni hal qilishda samarali muloqot va o'zaro tushunish muhimdir. Oilaviy terapiya, psixologik maslahatlar va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, oila a'zolarining muammolarni o'zaro murosali tarzda hal qilishiga yordam beradi.

3. Tarbiyaviy tizimni mustahkamlash: Oila ichidagi tarbiya tizimini kuchaytirish, farzandlarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va ijtimoiy muhitga moslashishda yordam berish zarur. Shu bilan birga, ota-onalar farzandlarining texnologiyalardan foydalanuvishini nazorat qilish va ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri foydalanish haqida ma'lumot berish lozim.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash: Oila a'zolarining psixologik salomatligini mustahkamlash uchun, oilaviy psixologik yordam va maslahat xizmatlarini ko'paytirish zarur. Bunday xizmatlar oilalarga stressni boshqarish, hissiy muvozanatni tiklash va o'zaro muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Xulosa

Oilaning mustahkamligi jamiyatning barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Psixologik muammolarni hal qilish va o'zaro munosabatlarni mustahkamlash jamiyatning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi. Aholi orasida oilaviy psixologiyani rivojlantirish va bunday muammolarga samarali yechimlarni joriy etish, jamiyatning yanada barqaror va farovon bo'lishiga yordam beradi. Shu tariqa, oila mustahkamligi psixologik muammolarni samarali hal qilish va o'zaro hurmatli, sog'lom muhit yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy, psixologik va tarbiyaviy sohalarida amalga oshiriladigan tizimli yondashuv oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Oila o'z o'rnida jamiyatning asosiy poydevori bo'lib, uning barqarorligi va farovonligi jamiyatning kelajagi uchun juda muhimdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oila muqaddas dargoh ekanligi, bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash eng muhim vazifa hisoblanishi Bosh Qomusimizning o'zgartirish kiritilgan moddalarida o'z aksini aksini topganligini, unda mohiyatan yangi konstitutsiyamizda oila huquqlari yanada mustahkamlanganidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T: "O'zbekiston", 2021.
2. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
<https://religions.uz/uz/news/detail?id=276>.
4. Family Research Laboratory (Wayback Machine saytida 2011-11-26 sanasida arxivlangan)(ingl.)